МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

УНИВЕРСИТЕТ МАМУНА

ФАКУЛЬТЕТ ФИЛОЛОГИИ

КАФЕДРА РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

МАТЕРИАЛЫ
Республиканской научно-практической конференции

РУССКИЙ ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРА В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ИННОВАЦИИ И КУЛЬТУРНЫЙ ДИАЛОГ
24 ЯНВАРЯ 2026 ГОДА

ХИВА – 2026

UO‘K: 65(076.1)(089)
KBK : 27.8ya5

Русский язык и литература в Узбекистане: традиции, инновации и культурный диалог. Сборник статей по итогам Республиканской научно-практической конференции (Хорезм, Хива, 24 января 2026 года). – Хива: Университет Мамун, 2026. – стр.

Сборник научных статей отражает широкий спектр актуальных проблем современной русской филологии, методики преподавания и межкультурного взаимодействия. В статьях первой секции рассматриваются вопросы языковой политики, специфика билингвального образования, учебно-методическое обеспечение, а также проблемы мотивации обучающихся и формирования языковой личности в многоязычной среде. Во второй секции авторы анализируют сочетание классических методик с современными педагогическими технологиями, подчеркивая значимость преемственности и адаптации мирового опыта к национальному контексту. В центре внимания третьей секции электронные образовательные ресурсы, дистанционное обучение, мультимедийные тексты и возможности цифровой среды для развития коммуникативных и аналитических навыков обучающихся. Четвертая секция охватывает вопросы современного русского языка, текстовой интерпретации, междисциплинарных исследований и новых направлений филологического анализа. В пятой секции рассматриваются перспективы развития русской филологии в Республике Узбекистан, ее роль в укреплении культурного диалога, межнационального согласия и международного научного сотрудничества. Сборник адресован филологам, преподавателям, аспирантам, студентам и всем, кто интересуется проблемами русского языка и литературы в контексте современного образовательного и культурного развития.

ISBN: 978-9910-9568-0-8

Рецензенты:
Чупонов О.О. **- DSc, доцент кафедры русского языка и литературы УрГУ**
Рузметов С.А. **- PhD, доц. кафедры русского языка и литературы УТУ «RANCH»**

Редакционная коллегия*:*
Алламуратова Гулсанем Жалгасбаевна **– кандидат филологических наук, доцент кафедры русского языка и литературы университета Маъмуна**
Матназаров Жавланбек Кабулович **- PhD., доцент кафедры узбекского и восточных языков университета Маъмуна**
Сапарова Мохира Файзуллаевна **– PhD., и.о. доцента кафедры западных языков и литературы университета Маъмуна**

©Ma’mun universiteti, 2026
©“QAL’A” nashriyoti, 2026

2. A. Zapirova “Abdulla Oripovning peyzaj lirikasi badiiyati” Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024. – 146 b.
3. B. Yo‘ldoshev “O‘zbek nasrida obraz va ramz muammosi” — Toshkent: Fan, 2015.
4. D. Quronov “Adabiyotshunoslikka kirish” — Toshkent: Akademnashr, 2018.
5. D.Quronov, Z.Mamatov, M. Sheraliyeva “Adabiyotshunoslik lug‘at” – T.: Akademnashr, 2013. – 408 b.
6. https://cyberleninka.ru/article/n/ekologik-tarbiyalashda-xalq-ogzaki-ijodining-orni-va-pedagogik-ahamiyati/view
7. https://cyberleninka.ru/article/n/shukur-xolmirzayev-hikoyalarida-tabiat-va-inson-munosabatlarining-badiiy-talqini/view
8. https://www.camuf.uz/journals/1/shukur-xolmirzayev-hikoyalarida-tabiat-muhofazasi
9. M. N. Zhirnitskaya. “Priroda, mir, taynik vselennoy…”: Sistema peyzajnykh obrazov v russkoy poezii Nauki” – M.: Vysshaya shkola, 1990. – 303 s.
10. N. Karimov “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi” — Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
11. O. Qayumov “O‘zbek adabiyotida qishloq hayoti tasviri” — Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
12. Sh. Xolmirzayev “Adabiyot va tabiat uyg‘unligi” — Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
13. To‘g‘ay Murod. Momo Yer qo‘shig‘i. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.

FITONIM TUSHUNCHASI VA UNING LISONIY XUSUSIYATLARI

Ikromov Maxamadyusub Tursunali o‘g‘li
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Andijon davlat pedagogika institute

Annotatsiya: Ushbu maqolada onomastik birliklar ichida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan fitonimlarning xususiyatlari, ularning ahamiyati, tilshunoslik tizimidagi o‘rni hamda ularni tadqiq etishning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ayrim fitonimlar misolida ularning Olamning lisoniy manzarasida tutgan o‘rni xususida fikr yuritiladi.
Kalit so‘zlar: Onomastika, termin, fitonim, lisoniy birlik, olamning lisoniy manzarasi.

Onomastik birliklar, jumladan, yurtimiz toponimikasiga doir materiallarni tadqiq etishda, ularni tahlil qilish va kerakli xulosalarni olishda o‘rganilayotgan modulning ham o‘rni kattadir, chunki til qonuniyatlarini, uning tarixiy taraqqiyot

qonuniyatlarini nazariy jihatdan o‘rganish bilan birga uni amaliy bilish davomida talabada o‘zbek tili onomastikasi, ya’ni nomshunosligiga bo‘lgan qiziqish yanada oshadi. Shu jihatdan ushbu modulini o‘rganish juda ahamiyatlidir.

Shuningdek, o‘zbek tili onomastikasini, jumladan, toponimikasini o‘rganish va o‘rgatish masalasi haqida gap ketganda, avvalo, o‘zbek tilining tarixiy fonetikasi, tarixiy leksika, tarixiy grammatikasi, shuningdek, o‘zbek tili leksikasining tarixiy-etimologik qatlamlari, tilimizning qardosh va noqardosh tillar bilan kontaklari kabi ko‘plab masalalar haqidagi bilimlarimiz diqqat e’tiborga olinadi. Yurtimizda so‘nggi davrda toponimika yo‘nalishdagi tadqiqot va izlanishlar sezilarli darajada ko‘paymoqda.

Onomastik qatlam leksikasini ham shartli ravishda leksik birliklar qatorida tadqiq etish urfga kirgan. Biroq, albatta, onomastikaning fanlar oralig‘idagi fan ekani inobatga olinsa, uning o‘ziga xos tadqiqot metodlari bor.

Bugungi kunda tabiatning ajralmas qismi hisoblangan o’simlik olami eng keng tarqalgan tadqiqot obyetkaridan biri hisoblanadi. Bir tomondanular insonlar tomonidan olamni idrok etish jarayonidagi taffakuri mahsuli hisoblansa, ikkinchi tomondan ma’lum bir guruhni tashkil etuvchi qadimiy predmetlar guruhini tashkil etadi. Garchi, o‘simliklarni ifodalovchi birliklar tilda “o‘simlik nomlari, o‘simliklarni ifodalovchi leksemalar, o‘simlik otlari, o‘simliklarni atovchi otlar, fitonimlar, fitonim, fitonimik leksika, floristik leksika“[Pazlitdinova, 2018, 9-b.] kabi nomlar bilan ayuritilish holatlari uchrasa-da, ular o’zining semantic xusuiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Fitonimfitonimi esa onomastika doirasida atoqli ot, onomasiologiya doirasida esa o’simlik nomini ifodalovchi so’zlar fitonimlar deb yuritiladi (“fitos” –o`simlik ; “onuma” – nom)[Xodjiyeva, 2021, 148-150-bet.]. Demak, Tilshunoslikda fitonimlar onomastikaning maxsus obyekti sifatida o‘rganiladi. Fitonimlar deganda ma’lum bir o’simliklarni xil yoki navini ifodalovchi leksemalar bilan bir qatorda malum bir o’simlikka atab qo’yilgan nomlarni ham tushinish zarur. Ular faqatgina fitonimlar emas, balki xalqning dunyoqarashi, tabiat haqidagi tasavvurlari, milliy madaniy qadriyatlarini ham o’zida ifoda etadi. Shu sababli ham fitonimlarni o’rganishni uch yo’nalishda olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

a) leksik-semantik jihat – so‘zning lug‘aviy ma’nosi, ko‘chma ma’nolari, sinonimiya va antonimiyasi tahlil etialdi. So’zning lug’aviy ma’nosi uning bosh ma’nosi hisoblanib, unga nisbatan sinonim, antonym yoki ko’chma ma’nosi aniqlanadi. Masalan; “Anor (lotincha: Púnica granátum) — derbenlar oilasiga (Lythraceae) turkumiga mansub o‘simlik turi, mevasi iste’molga yaroqli. Anor mevalarini ozuqa mevasi sifatida xom holda, tayyor ovqatga solishda, shuningdek, sharbatini olib, ichimlik sifatida foydalanish mumkin. Shimoliy yarimsharda anor mavsumi odatda sentabrdan fevralgacha, janubiy yarimsharda — martdan maygacha davom etadi”[https://uz.wikipedia.org/wiki/Anor?utm_source]– bu anor fitonimining lug’aviy manosini ifodalaydi.

Tilimizning ayrim shevalarida anor – nor shaklida qo’llanadi. Buni esa sinonim sifatida olishimiz mumkin. Xalqimiz tomonidan anorning, asosan, ikki turi farqlanadi. Bu – achchiq anor-shirin anor bularni esa antonim sifatida qabul

qilishimiz mumkin. Xalqimizda anor hosildorlik, ba’zi o’rinlarda serfarzandlik kabi ramziy ma’nolarni ifodalaydi.

b) onomasiologik – o‘simliklarning nomlanish motivlari asosida. Fitonimlarning nomlanish motivlari sifatida uning rangi (oq terak, qizil gul, qizilmiya (ildizi qizil) oqterak, ko’kpiyoz), shakli (otquloq, chumchuqko’z, qo’ziqorin, bo’rikalla), hidi (atir gul), mazasi (achchiq anor, achchiq bodom) kabi motivlarni kiritishimiz mumkin.

c) tarixiy-etnokulturologik jihat – xalqning urf-odati, marosimi, mifologiyasi, badiiy ijodida fitonimlarning ramziy qo‘llanilishi. Fitonimlarning ushbu jihatini o’rganish va tadqiq etish uchun tarixiy manbaalarga murojaat qilish zarur. Bunday tarixiy manbalardan biri “Boburnoma”dir. Asarda ko’plab ko’plab mevalar, o’simliklar, daraxtlar, gullar – fitonimalar keltirilgan bo’lib bugungi kunda ularning diaxronik tadqiq etilgandafitonimlarning shakliy va semantik xususiyatlarida bir qancha o’zgarsih bo’lganini ko’rishimiz mumkin. Asarda keltirilgan fitonimlarni statistik tahlil qilganimizda shu ayon bo’ldiki: fitonimlarning salmoqli qismini meva nomlari tashkil etadi. Fitonimlarni diaxronik tahlil etishdan maqsad ularni bugungi kundagi – sinxron holati va tarixiy shakli o’rtasidagi differensatsiya jarayonini aniqlash. Ularning fonetik, semantik xususiyatlarini aniqlash bu orqali fitonimlarni lingvistik xususiyatlar va tarixiy o’zgarish jarayonlarini aniqlash mumkin. Asarda keltirilgan fitonimlarni semiotik xususiyatlarini tasnifiy metod

asosida quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Semiotik tarkibi o’zgarishsiz qolganfitonimlar: “Qovuni yaxshi bolur. Bir

nav’ qovundurkim, «Mir Temuriy» derlar, andoq qovun malum emaskim olamda

bo‘lg'ay”, “Oshlig‘i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo‘lur”, “Oqar suvlari bor, bahori bisyor yaxshi bo‘lur, qalin lola va gular ochilur”[Z. M. Bobur, 2015, 5,6,13-b.] – asardan olingan yuqridagi parchalarda kelgan qovun, uzum, gul kabi terminlar diaxronik jihatdan ham sinxronik jihatdan ham semiotic jihatdan bir xil shaklga ega, aniqorg’i, ushbufitonimlar o’z shakli o’zgarishsiz bugungi kunda ham foydalanib kelmoqda.

2. Semiotik tarkibi qisman o’zgarganfitonimlar: “Qovun mahalida polizboshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidin yaxshiroq noshpoti

bo‘lmas”, “Daraxtlaming bargini otqa berurlar edi. Anda tajriba boldikim, bori

yafroqlardin tut yafrog'i va qaro yig'och yafrog’i otqa sozvorroq emish, Kobul va kentlarida sardseriy mevalardin uzum va anor va o'ruk va olma va bihi va amrud va shaftolu va olu va sanjid va bodom va yang'oq qo'ptur”[Z. M. Bobur, 2015, 153-b.] – asardan olingan yuqoridagi parchalarda keltirlgan fitonimlarni alohida izohlash zarur.

a) Noshpoti (hozirda: nashvati) – ushbufitonimning semiotik tarkibida qisman

o’zgarish yuz bergan, yani o-a, p-v, a-o o’zgarsihga uchragan. Shuni ham alohida

aytish kerakki, ushbu so’zning faqat semiotik tabiatigina emas, semantik tarkibida ham o’zgarsish yuz bergan deyish mumkin. Chunki “noshpoti” keltirligan davrda “nok” mevasini ifodalagan bo’lsa, hozirda nokning bir turini ifodalashga o’tgan.

b) Yafroq (hozirda: yaproq) – ushbufitonimning ham ham semiotik tarkibida qisman o’zgarish yuz bergan, yani f-p fonemalari o‘zgarishga uchragan.

3. Semiotik tarkibi butunlay o’zgargan fitonimlar: “Chorbog'da ham martabamartaba yerlarni siyoq bila tuzatib, yaxshi narvonlar va sarv va safedorlar tikibturlar, xeyli saromad, Daraxtlaming bargini otqa berurlar edi. Anda tajriba bo’ldikim, bori yafroqlardin tut yafrog'i va qaro yig'och yafrog’i otqa sozvorroq emish”[Z. M. Bobur, 2015, 182-b.]. Yuqoridagi parchalarda keltirilgan fitonimlarning fonetik strukturasi butunlay o’zgarib ketganini ko’rishimiz mumkin.

a) Narvon (hozirda: qayrag’och);

b) Safedor (hozirda: oq terak);

c) Qaro yig’och (hozirda: qayrag’och) – yuqoridagifitonimlarni diaxronik tahlil natijasida ular semiotik tarkibi to’liq o’zgarshga uchragani ma’lum bo’lsa-da, biroq terminlarning diaxronik va sinxronik holatida turlicha bog’liqlikni uchratish mumkin: Aniqrog’i, narvon leksemasi o’z semasini yo’qotib, uning nsemasi qayrag’och leksemasiga ko’chib o’tadi. Yani ushbufitonimda semiotik tarkibi saqlanib qolgan holda semantik strukturasida o’zgarish yuz beradi. Safedor so’zini tarixiy aspektda tadqiq etganimizdafitonimning bugungi kundagi ma’nodoshi (oq terak) bilan o’zaro munosabati etnomadaniy xususiyat kasb etganini ko’rishimiz mumkin. Yani, Bobur davrida turkiy xalqalar va fors-tojik etnoslari o’rtasidagi madaniy aloqalar rivojlangani sababli fors-tojik va turkiy til kontakti yuz beradi va buning natijasida safedor (oq terak) leksemasi turkiy tilda faol qo’llanadi. Qaro yig’ochfitonimining rivojlanish dinamikasi esa etimologik va structural xususiyat kasb etadi. Yani, dastlab ikki mustaqil morfemadan tarkib topganfitonim til taraqqiyot jarayonida qo’shilib yahlit bir asosga aylanadi. Fitonimloarning tarixiy etnomadaniy jihatlarini o’rganish fitonimlani paydo bo’lishi, fonetik, leksik-semantik jihatdan o’zgarish jarayoni hamda fitonimlarning etnos, madaniyat kabi faktorlar bilan o’zaro munosbatini yoritishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ikromov, M. (2025). BOTANIK TERMINLARNI ANTROPOSENTRIK PARADIGMADA O ‘RGANISHNING AHAMIYATI. NamDU Ilmiy Axborotnomasi.
2. Ikromov, M. (2025). BOTANIK TERMINLARNING ETNOMADANIY TADQIQI"«ЭТНОКУЛЬТУРНОЕ ИЗУЧЕНИЕ БОТАНИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ»" ETHNOCULTURAL STUDY OF BOTANICAL TERMS. FarDU. Ilmiy xabarlar–Scientific journal of the Fergana State University.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Bobumoma:. –T.: «Yangi asr avlodi», 2015. – B. 5,6,13.
4. Пазлитдинова Н.З. Ўзбек тили фитонимларининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. фалс. док. дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – Б.9.
5. Ходжиева Н. Х. Лексика фрукта в лирике Алишера Наваи //Современная наука: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2021. – С. 148-150.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Anor?utm_source

	xususiyatlari	
Baxramova Maftuna	KOREYS VA O‘ZBEK TILIDA KELISHIKLAR TIZIMI: QIYOSIY-ILMIY TAHLIL	
Baxtiyarova Zebiniso ***Yusupova Elanura Muxitdin qizi***	Rasmiy hujjatlarning til va uslub xususiyatlari: o‘zbek va turk tillari misolida	
Bekberganova Khilola Maksud kizi	Current issues in linguistics and literary studies: a global perspective	
Bobojonov G.	Milliy merosimizni o‘rganishda ona tiliga ehtirom masalasi	
Buranova Jamila Aliyevna	Zamonaviy romanlarda arxaik mifologik obrazlarning qayta tiklanishi	
Ergashev Maqsud Usan o‘g‘li,	“Boqiy darbadar” romanida qo‘rquv va o‘zini oqlash motivlari	
Eshmurodova O‘g’ilshod Siddiq qizi	Uchinchi odam — elni bog’lovchi va chalg’ituvchi kuch	
Gapparov Bexzod Nematillayevich,	Tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalarini tahlil etishda arxitekturaviy loyihalash fanining metodologik imkoniyatlari	
Hasanova Gulhida Abdulaziz qizi	The problems of studying bilingual synonyms in corpus-based lexical semantics	
Hayotova Diyora Hamid qizi	Tog‘ay murodning “momo yer qo‘shig‘i” qissasida tabiat tasviri va inson bilan uzviy aloqadorlik	
Ikromov Maxamadyusub Tursunali o‘g‘li	Fitonim tushunchasi va uning lisoniy xususiyatlari	

РУССКИЙ ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРА В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ИННОВАЦИИ И КУЛЬТУРНЫЙ ДИАЛОГ

Muharrir **M.Otaxonov**

Musahhih **I.O'rinboyev**

Texnik Muharrir **H.Yusupbayeva**

Nashriyot litsenziyasi № 286135 28.05.2024

Bosishga topshirilgan vaqti : 11:00. Topshirildi 11:00

Qog'oz bichimi : A5 Add: 100 nusxa

Xajmi: 60x84-1/16 b.t. Buyurtma №1250

"QAL'A" nashriyoti

"FLY POLYGRAPH" MCHJ da offset usulida chop etildi

Urganch shaxri "Alisher Navoiy **"** ko'chasi 100-a uy

Tel (+998)95-958-45-45